



TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS

FORUM. SELEC  
WILL BE PUBLI  
CONFERENCE  
PROCEEDINGS

ФОРУМ СОСТОИТ ИЗ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИХ КОНФЕРЕНЦИЙ, МАСТЕР-КЛАССОВ И ЛИТЕРАТУРНЫХ ВЫСТАВОК И ПРЕДСТАВЛЯЕТ КРУПНУЮ ПЛОЩАДКУ ДЛЯ ОБМЕНА НАУЧНЫМ И ПРАКТИЧЕСКИМ ОПЫТОМ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СФЕРЕ МЕЖДУ НАЦИОНАЛЬНЫМИ И ОТЕЧЕСТВЕННЫМИ СПЕЦИАЛИСТАМИ

II КОНФЕРЕНЦИЯ, ТРАНСФОРМАЦИОННОЕ  
ЖАРАЁНИДА МОЛИА ТИЗМИ ВА  
БУГАЛТЕРИЯ ХИСОБИ  
АРХИТЕКТУРАСИНИ ТАКОМИЛТАШ  
МАСАЛАЛАРИ

1ST TSUE DEVELOPMENT  
STRATEGY FORUM

# RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI

2022

ELEKTRON ILMIY JURNALI / MAXSUS SON

ORGANIZING THE 1ST TSUE DEVELOPMENT STRATEGY FORUM FOR NATIONAL ECONOMIC TRENDS. THE AIM OF THE FORUM IS TO CREATE A PLATFORM FOR THE EXCHANGE OF IDEAS AND EXPERTISE ON VARIOUS TOPICS RELATED TO THE CURRENT TRENDS IN THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE COUNTRY.

20-21

ОКТАБРЬ  
I ФОРУМ СТРАТЕГИИ  
РАЗВИТИЯ



## РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION TECHNOLOGY

Илмий электрон журнал | Scientific electronic journal

### МУАССИС | FOUNDER

Тошкент давлат иқтисодиёт университети  
Tashkent State University of Economics

### ТАҲРИР КЕНГАШИ РАИСИ | CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD

Шарипов Конгратбой Аvezимбетович – т.ф.д., профессор  
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich – doctor of technical sciences, professor

### БОШ МУҲАРРИР | EDITOR-IN-CHIEF

Абдуллаев Мунис Курбонович – и.ф.ф.д. (PhD), доцент  
Abdullayev Munis Kurbonovich – PhD, docent

### БОШ МУҲАРРИР ЎРИНБОСАРИ | DEPUTY CHIEF EDITOR

Вафоев Бобуржон Расулович – и.ф.н., доцент  
Vafoev Boburjon Rasulovich – PhD, docent

### МАСЪУЛ КОТИБ | EXECUTIVE SECRETARY

Л.А. Аблазов | Ablazov L.A.

### БЕБ-АДМИНИСТРАТОР | WEBMASTERS:

Н.Я. Нурсайдов, А.Ш. Махмудов | Nursaidov N.Ya., Makhmudov A.Sh.

### ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ | EDITORIAL BOARD

С.С. Гулямов – и.ф.д., академик.

Б.А. Бегалов – и.ф.д., профессор.

М.П. Эшов – и.ф.д., профессор.

О.Қ. Абдурахмонов – и.ф.д., доцент.

К.Б. Ахмеджанов – и.ф.д., профессор.

И.М. Алимардонов – и.ф.д., доцент.

Р.Салиходжаев – и.ф.ф.д. (PhD).

Проф. Холназар Амонов (Чехия).

Проф. Ҳамид Эргашев (Англия).

Проф. Карина Татек Банетти (Чехия).

Проф. Одиложон Абдураззаков  
(Германия).

Проф. Эко Шри Маргианти (Индонезия).

Проф. Дмитрий Назаров (Россия).

Проф. Н.М. Сурнина (Россия).

Проф. Марк Розенбаум (АҚШ).

PhD. Абдул-Рашид (Афғонистон).

PhD. Аҳмед Мохамед Азиз Исмоил (Миср)

PhD. Бекзод Саидов – (АҚШ).

А.А. Исмаилов – и.ф.д., профессор.

И.Е. Жуковская – и.ф.д. (DSc), профессор.

Т.С.Кучкоров – и.ф.д. (DSc), профессор.

Р.А. Дадабаева – и.ф.н., доцент.

Ш.И. Хашимходжаев – и.ф.н., доцент.

А.А. Абидов – т.ф.н., доцент.

И.М. Абдуллаева – и.ф.н., доцент.

Н.Б. Абдусаломова – и.ф.д. (DSc),  
профессор.

Р.Х. Насимов – т.ф.н., доцент.

А.Б. Бобожонов – и.ф.ф.д. (PhD).

С.О. Хомидов – и.ф.ф.д. (PhD).

Ш.С. Егамбердиев – и.ф.ф.д. (PhD).



# MUNDARIJA:

|   |    |
|---|----|
| <b>Азларова Азиза Ахроровна</b><br>ЎЗБЕКИСТОНДА ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАРАЁНИДА БАНК ТИЗИМИ<br>АРХИТЕКТУРАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ .....   | 4  |
| <b>Абидов Абдужаббор Абдухамидович,</b><br><b>Мирзаахмедов Дилмурод Мирадилович</b><br>АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ УГРОЗ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ .....   | 8  |
| <b>Абдуллаев Мунис Курбанович,</b><br><b>Зарипов Баҳодир Бобомурод ўғли</b><br>ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ<br>ҚЎЛЛАШНИНГ ИЛФОР ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАРИ .....                                       | 13 |
| <b>Мансуров Мансур Алишерович</b><br>ДАВЛАТ БЮДЖЕТИ ҒАЗНА ИЖРОСИНИ АВТОМАТЛАШТИРИШНИНГ<br>УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ .....   | 19 |
| <b>Яхшиева Мавлуда Турсуновна</b><br>ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ<br>ЭФФЕКТИВНОСТИ И КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ .....   | 25 |
| <b>То‘рабеков Farhod Sanaqulovich,</b><br><b>Shofiddinova Zulfizar Ixtiyor qizi</b><br>TA'LIMDA RAQAMLI (DIGITAL) TECHNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING<br>DIDAKTIK IMKONIYATLARI .....                                  | 30 |
| <b>Абдурашидова Марина Сагатовна</b><br>РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ДАВРИДА ОЛИЙ МАЪЛУМОТ ....  | 34 |
| <b>Nabiyeva Feruza Odilovna,</b><br><b>Abdullayev Munis Qurbonovich</b><br>ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR:<br>O'ZBEKISTON MISOLIDA .....  | 41 |
| <b>Homidov Hamdam Hasan o'g'li,</b><br><b>Ablazov Lazizbek Abdiquosimovich</b><br>QISHLOQ XO'JALIGI SAMARADORLIGINI STATISTIK TAHLIL QILISHDA SUN'IY<br>INTELLEKT TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISHDAGI HARAKATLAR ..... | 50 |
| <b>Karimova Shirin Zoxidovna</b><br>JAHON IQTISODIYOTIDA ELEKTRON TIJORATNING AHAMIYATI .....   | 55 |
| <b>Мирзакаримова Мухаббатхон Махмуд қизи</b><br>СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ОРҚАЛИ МАСАФОВИЙ ТАЪЛИМНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ  | 60 |

|  |           |
|--|-----------|
| <b>Boboqulov Abror Abdug'ani o'g'li</b><br>PROSPECTS OF IMPLEMENTATION OF "ARTIFICIAL INTELLECT" IN UZBEKISTAN . . . .   | <b>66</b> |
| <b>Абдуллаев Ҳабибулло Асадулла ўғли</b><br>РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВА САНОАТЛАШТИРИШ - МИНТАҚА САНОАТ<br>ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИ СИФАТИДА . . . . . | <b>71</b> |
| <b>Rajabov Doniyor Dilshod o'g'li</b><br>BOSHQARUV HISOBIDA BIZNES JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISHNI<br>TAKOMILLASHTIRISH . . . . .                                | <b>75</b> |
| <b>Файзиева Муяссарзода Ханчаровна</b><br>ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИЛИШИГА<br>ЎЗБЕКИСТОН Э-ҲУКУМАТИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ТАЪСИРИ . . . . .    | <b>81</b> |
| <b>Hamidov Sardor Rahmonovich</b><br>TRANSFORMATION OF THE BANKING SECTOR IN THE CONDITIONS<br>DIGITALIZATION OF THE WORLD ECONOMY . . . . .                       | <b>89</b> |
| <b>Boltayeva Dilafza Jumaqulovna</b><br>IS-LM-BP MODELINING MOHIYATI, ASOSIY XUSUSIYATLARI VA MEZONLARI . . . . .  | <b>94</b> |



5. Basnukaev, M. S., Sugarova, I. V., Musostova, D. S., Aliyeva, Z. M., & Jushaeva, R. S. E. (2018). Monetary and credit system and its impact on the economy of the country. IBIMA 2018 – Vision 2020:
6. Belous A. P., Lyalkov S. Yu. The vector of development of banks in the digital revolution stream // Banking business. 2017 No. 10, pp. 16–19.
7. Breidbach C. F., Keating B. W., Lim C. Fintech: Research Directions to Explore the Digital Transformation of Financial Service Systems // J. Serv. Theory Pract. 2020. Vol. 30. P. 79–102. [CrossRef].
8. Carbo-Valverde S., Kahn C. M. Payment Systems in the US and Europe: Efficiency, Soundness and Challenges // Financial Stability Journal (Bank of Spain), 2016. Vol. 30. P. 11–33.
9. Development of banking technologies: opportunities and challenges 2017 (Moscow: Bank of Russia) 40–42. Digitalization Definition (2017). – URL: <http://www.gartner.com/it-glossary/digitalization>.
10. Didenko V. Yu. Influence of the era of digitalization on banking business models // Trade and Economic Journal, No. 3(2). 2016, pp. 183–194.
11. Kazarenkova N. P., Svetovtseva T. A. Transformation of the banking system of Russia under the influence of digitalization of the economy. Bulletin of the South-Western State University. Series: Economics. Sociology. Management. 2018. V. 8, No. 4 (29). 188–195.

## IS-LM-BP MODELINING MOHIYATI, ASOSIY XUSUSIYATLARI VA MEZONLARI

**Boltayeva Dilafza Jumaqulovna,**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar) yoʻnalishi talabasi

### Annotatsiya

Har qanday mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini taʼminlash uchun iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmlari va instrumentlarini qoʻllash bilan bir qatorda, davlatning budjet-soliq va pul-kredit siyosatlarini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish, ularning samaradorligini oshirish kerak boʻladi. Ushbu maqolada mamlakat makroiqtisodiy barqarorligini taʼminlashda IS-LM-BP modelining fiskal va monetar siyosatga bogʻliqligi oʻrganilgan, uning asosiy xususiyat va mezonlari aniqlangan, tahlil qilingan.

### Kalit soʻzlar

*Budjet-soliq siyosati, pul-kredit siyosati, balans, kredit, Markaziy bank, IS-LM modeli, IS-LM-BP modeli, kapital, valyuta kurslari, foiz stavkasi, pul bozori.*

**Kirish.** Mamlakat jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish, tez va sifatli ilgariylashini taʼminlashi uchun davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirishga asoslangan holda islohotlarini amalga oshirishiga toʻgʻri keladi. Bularni taʼminlovchi asosiy vositalar davlatning budjet-soliq va pul-kredit siyosati hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 08.01.2019 dagi “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoniga koʻra, fiskal siyosat samaradorligi quyidagi kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi:

vaqtinchalik tashqi shoklar va islohotlar natijasida yuzaga keladigan yoʻqotishlarni boshqarishning yetarlicha moslashuvchan shart-sharoitlarini taʼminlaydigan fiskal siyosat qoidalarini ishlab chiqish;

umumiy fiskal balans doirasida davlat dasturlarini kreditlash boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi konsolidatsiyalashgan budjeti va amaliyotlarini aniq hisobga olishni joriy etish;

fiskal xavf-xatarlarning aniqlash, oshkor qilish va boshqarish qoʻllanmasini ishlab chiqish.

Makroiqtisodiy barqarorlikni taʼminlash uchun iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmlari va instrumentlarini qoʻllashni kengaytirish, shuningdek, pul-kredit siyosati samaradorligini tubdan oshirish maqsadida:

pul bozorida foiz stavkalarini tartibga solish va inflatsion jarayonlarni boshqarish maqsadida pul-kredit siyosatining keng qamrovli instrumentlarini qoʻllash;

pul-kredit siyosati sohasida obyektiv qarorlar qabul qilish maqsadida ichki va tashqi bozorlarda mavjud boʻlgan ochiq maʼlumotlarni

hisobga olgan holda batafsil makroiqtisodiy tahlil va prognozlarini amalga oshirish;

pul-kredit siyosati maqsadlarini keng jamoatchilikka yetkazish, makroiqtisodiy holatning oldindan ko'ra bilinishini ta'minlash va bozor ishtirokchilari ishonchini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kommunikatsiya siyosatini takomillashtirish kabilar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatining asosiy tamoyillari etib belgilandi [2].

### Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

O'zbekistonlik va xorijlik olimlar makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda fiskal hamda monetar siyosatlarni tartibga solish, uning zarurati va ahamiyati borasida ko'plab amaliy ishlanmalar, ilmiy maqola va konseptual nazariyalar ishlab chiqishgan. Ulardan biri IS-LM-BP modeli bo'lib, u 1960-yillarda deyarli bir vaqtda ochiq iqtisodiyotni tahlil qilgan iqtisodchilar – Robert Mundell va Markus Fleming tomonidan ishlab chiqilgan modeldir. Ikkala iqtisodchi taxminan bir vaqtda, bir xil mavzuda tadqiqot o'tkazgan bo'lsa ham, ikkalasi ham har xil tahlillarga ega bo'lgan. Mundellning 1963-yildagi "Belgilangan va moslashuvchan valyuta kurslari bo'yicha kapitalning harakatchanligi va barqarorlashtirish siyosati" maqolasida kapitalning mukammal harakatchanligi holati tahlil qilingan [3], Fleming modeli esa kapitalning nomukammalligini taxmin qilgani sababli, yanada aniqroq edi va shuning uchun uni yanada qat'iy va keng qamrovli modelga aylantirdi. Model "O'zgarmas va o'zgaruvchan kurslar ostida ichki moliyaviy siyosat" (1962) maqolasida tasvirlangan [4], ammo hozirda uning modeli muvofiqlikni yo'qotdi, chunki dunyodagi haqiqiy vaziyat kapitalning umumiy harakatchanligi bilan ko'proq o'xshash bo'lib, bu


Mundellning fikriga yaxshiroq mos keladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada mamlakat makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashda IS-LM-BP modelining fiskal va monetar siyosatga bog'liqligini, uning asosiy xususiyat va mezonlarini aniqlash uchun ilmiy-tadqiqotning tanlanma adabiyotlar tahlili, guruhlashtirish, analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy taqqoslash, ma'lumotlarni yig'ish va iqtisodiy matematika kabilardan keng foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** IS-LM-BP modeli (shuningdek, IS-LM-BoP yoki deb ham nomlanadi) – IS-LM modelining kengaytmasi, ochiq iqtisodiyot uchun versiyasidir. Tovarlar va moliya bozorlaridagi balansdan tashqari, ushbu model to'lov balansini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu model qanday ishlashini tushunish uchun avval tovar bozoridagi muvozanatni ifodalovchi IS egri chizig'i qanday aniqlanganligini ko'rib chiqamiz. Ikkinchidan, LM egri chizig'i bu pul bozoridagi muvozanatni aks ettiradi. Uchinchidan, to'lov balansining muvozanatini aks ettiruvchi BP egri chizig'ini o'rganamiz. Nihoyat muvozanatga qanday erishilganligini tahlil qilamiz.

IS egri chizig'i: tovarlar va xizmatlar bozori.

IS-egri chizig'i tovarlar xizmatlar bozorida foiz stavkasi  $R$  va daromadlar darajasi  $Y$  ning kombinatsiyalarini xarakterlovchi, bir vaqtning o'zida asosiy makroiqtisodiy ayniyat, iste'mol, investitsiya va sof eksport funksiyalari qondiriladigan nuqtalarning geometrik joylashuvini xarakterlaydi. Bu egri chiziqning har bir nuqtasida investitsiyalar va jamg'armalar o'zaro teng bo'ladi. Qisqa muddatda, belgilangan narx darajasida, barcha o'zgaruvchilarning nominal va real qiymatlari, daromad ( $Y$ ) va harakatlanuvchi foiz stavkalari ( $R$ ) qiymatlariga mos keladi.



1-rasm. IS egri chizig'ining tuzilishi. a) Investitsiya funksiyalari  
b) Keynes xochi c) IS egri chizig'i

1 a-rasm investitsiya funksiyasini tasvirlaydi. Holbuki, foiz stavkasi – bu investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun kredit olish xarajatlaridir. Foiz stavkasining oshishi rejalashtirilgan investitsiyalarni kamaytiradi, ya'ni foiz stavkasining R1 dan R2 gacha ko'tarilishi rejalashtirilgan investitsiyalarni I (R1) dan I (R2) gacha kamaytiradi.

1 b-rasm Keynes xochini tasvirlaydi: rejalashtirilgan sarmoyani I (R1) dan I (R2) gacha kamaytirish daromadni E1 dan E2 gacha  $\Delta E = \Delta I$  ga teng bo'lguncha kamaytiradi. Oqibatda daromadlar miqdori Y1 dan Y2 qadar  $\Delta Y = \Delta E \times m$  miqdorga pasayadi, bu yerda ( $m = 1/(1-b(1-T)+m')$ ). Demak, tovarlar va xizmatlar bozorida daromadlar darajasi hamda foiz stavkasi dinamikasi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud.

1 c-rasm foiz stavkasi va daromad o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida IS egri chizig'ini ko'rsatadi. R o'zgarimagan holda IS egri chizig'ining o'ngga yoki chapga siljishi quyidagi omillar ta'sirida ro'y beradi: iste'mol xarajatlari darajasi; davlat xaridi darajasi; sof soliqlar (soliqlar – subsidiyalar – transfertlar); investitsiyalar hajmining (R ning mavjud stavkasida) o'zgarishi.

IS tenglamasini iste'mol, investitsiya va sof eksport funksiyalari tenglamalarini asosiy makroiqtisodiy ayniyatga qo'yib, u R va Y ga nisbatan yechib topiladi.

R ga nisbatan topilgan IS tenglamasi:

$$R = \frac{a+e+g}{d+n} - \frac{1-b(1-t)+m'}{d+n} Y + \frac{1}{d+n} G - \frac{b}{d+n} T a$$

R=bu yerda  $T = T_a + t Y$

Y ga nisbatan topilgan IS tenglamasi:


$$Y = \frac{a+e+g}{b(1-t)+m'} - \frac{1}{b(1-t)+m'} G - \frac{b}{b(1-t)+m'} T a - \frac{d+n}{b(1-t)+m'} R$$

Y=bu yerda  $T = T_a + t Y$

$(1-b(1-t)+m')/(d+n)$  IS egri chizig'ining Y o'qiga nisbatan og'ish burchagini ko'rsatadi va fiskal hamda pul-kredit siyosati samaradorligining nisbiy parametrlaridan biri hisoblanadi.

IS egri chizig'i bo'ylab harakatlanish tovarlar bozorida muvozanatni saqlash uchun foiz stavkalari darajasining o'zgarishi milliy daromad darajasi qanday o'zgarishi kerakligini ko'rsatadi. IS egri chizig'i iqtisodiy maydonni ikki yo'nalishga ajratadi: IS egri chizig'idan yuqorida bo'lgan barcha nuqtalarda taklif talabdan kattaroq, ya'ni milliy daromad miqdori rejalashtirilgan xarajatlardan kattaroqdir. IS egri chizig'idan pastda bo'lgan

barcha nuqtalarda tovarlar bozorida taqchillik mavjud.



2-rasm. IS egri chizig'i va iqtisodiy maydon

LM egri chizig'i: pul bozori

LM egri chizig'i o'zgarimas narxlar sharoitida pul vositalari bozorida vujudga keladigan foiz stavkasi va daromadlar darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi. LM egri chizig'ining har bir nuqtasida pulga talab  $M_d$  pul taklifi  $M_s$  ga teng bo'ladi (liquidity Preference = Money Supply). Pul bozorida bunday muvozanatga daromad Y ning oshishi bilan foiz stavkasi R ko'tarilagina, erishiladi.

Ma'lumki, pulga talab miqdoriga foiz stavkasidan tashqari daromadlar darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. Daromadlar yuqori bo'lsa, xarajatlar ham ko'p bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, iste'mol va boshqa xarajatlar uchun pulga talabni oshishiga olib keladi. Shunday qilib, daromadlar darajasining yuqoriroq bo'lishi pul talabini oshiradi. Boshqacha aytganimizda, daromad va pulga talab dinamikasi o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud.


Pulga talab funksiyasini quyidagicha yozamiz:

$$M/R = L(R; Y)$$

3 a-rasm daromadning Y1 dan Y2 ga o'sishi pulga bo'lgan talabni oshirishini ko'rsatadi. Bunda foiz stavkasi R1 dan R2 gacha ko'tariladi. Pulga bo'lgan talab egri chizig'i o'ng tomonga siljiydi.

3 b-rasmda LM egri chizig'i tasvirlangan bo'lib, u pul darajasi va foiz stavkasi darajasining har xil kombinatsiyalari bilan pul bozoridagi muvozanat holatlari to'plamini tavsiflaydi.





**3-rasm. LM egri chizig'ining tuzilishi. A. Haqiqiy pul bozori B. LM egri chizig'i**

LM egri chizig'i o'ziga xos: gorizont va vertikal konfiguratsiyaga ega [5].

LM egri chizig'ining gorizont qismi foiz stavkasi  $R$  ning minimal darajasidan pasayolmasligini anglatadi, vertikal qism foiz stavkasi  $R$  ning maksimal darajasi chegarasidan tashqarida hech kim o'z mablag'larining likvid (pul) shaklida ushlab turmasligini va ularni qimmatli qog'ozlarga aylantirishini anglatadi.


LM egri chizig'ining gorizont kesmasi foiz stavkasi foiz stavkasi  $R$  darajadan pastga tushishi mumkin emasligini ko'rsatadi. Egri chiziqning vertikal kesmasi foiz stavkasining maksimal daraja  $R$  chegarasidan tashqarida hech kim jamg'armalarini likvid (pul) shaklida ushlab turmaydi va ularni qimmatli qog'ozlarga aylantiradi. Baholarning o'zgarishi hamda pul taklifi hajmidagi o'zgarishlar LM egri chizig'ining o'ngga yoki chapga siljishiga olib keladi. LM egri chizig'i tenglamasi pulga talab funksiyasini  $R$  va  $Y$  ga nisbatan yechib topiladi [6].

$R$  ga nisbatan LM egri chizig'i tenglamasi quyidagicha:  $R = (k/h)Y - (1/h)(M/P)$ .

$Y$  ga nisbatan LM egri chizig'i tenglamasi quyidagicha:  $Y = (1/k)(M/P) + (h/k)R$ .


$k/h$  koefitsiyenti LM egri chizig'ining  $Y$  o'qiga nisbatan og'ish burchagini xarakterlaydi hamda fiskal va pul kredit siyosatining nisbiy samaradorligi baholaydi. LM egri chizig'i iqtisodiyotni ikki qismga ajratadi. LM egri chizig'idan yuqorida bo'lgan barcha nuqtalarda  $M > L$ , ya'ni pul taklifi unga bo'lgan talabdan katta. LM chizig'idan pastda joylashgan barcha nuqtalarda  $M < L$ .

Tovarlar va pul bozorlaridagi muvozanat  $IS$  va LM egri chiziqning kesishish nuqtasi  $(R_0, Y_0)$  da amalga oshiriladi.



**4-rasm. LM egri chizig'i [7]**

5-rasmda milliy daromad va foiz stavkasi darajalari birlashtirilganda erishiladigan tovarlar, pul va qimmatli qog'ozlar bozorlarining birgalikdagi muvozanati ko'rsatilgan  $(R_0, Y_0)$ .



**5-rasm. Tovarlar, pullar va qimmatli qog'ozlar bozoridagi muvozanat**


Tovarlar, pullar va qimmatli qog'ozlar bozorlaridagi birgalikdagi muvozanatga mos keladigan umumiy talab miqdoriga talab samarasi deyiladi.

BP egri chizig'i: to'lov balansi

Ichki va tashqi muvozanat muammosi ko'pincha  $IS-LM$  modeliga to'lov balansi holati muvozanatini aks ettiruvchi uchinchi BP egri chizig'ini qo'shib o'zgartirilgan modeldan foydalanish bilan tahlil qilinadi. Model belgilangan va o'zgaruvchan valyuta kurslari rejimlari, shuningdek, kapital harakatchanligining turli darajalar uchun o'rnatildi. Quyidagi grafikda, koordinata o'qlarida ikkita siyosat vositasi, ichki va tashqi muvozanatni amalga oshirishni ta'minlovchi ko'rsatkichlar keltirilgan:

a) davlat xarajatlari darajasi ( $G$ ); b) foiz stavkasi ( $R$ ).






**6-rasm. Bir vaqtning o'zida ichki va tashqi muvozanatga erishish muammosi**

BP egri chizig'i tashqi balansni ta'minlaydigan davlat xarajatlari hajmi (G) va foiz stavkalari qiymatlari (R) kombinatsiyasining to'plamini anglatadi ( $BP = 0$ ). BP egri chizig'i ijobiy, to'g'ri bog'liqlikka ega, bu quyidagilarga asoslanadi:

Faraz qilaylik, ichki va tashqi muvozanatga E nuqtada erishiladi. Davlat xarajatlarining o'sishi (G) E nuqtadan A nuqtaga o'ngga tomon harakati aks ettirilgan, bu daromadni va importning ko'payishiga olib keladi, natijada savdo defitsiti yuzaga keladi ( $BP < 0$ ). To'lov balansi defitsitini ( $BP = 0$ ) yo'q qilish uchun davlat cheklangan pul-kredit siyosati orqali kapital hisobi balansining ijobiy holatga erishish choralarini ko'rishi kerak. Masalan, foiz stavkasining oshishi mamlakatga chet el kapitalining quyidagi hajmda kirib kelishini rag'batlantiradi: kapital schyoti balansi ijobiy bo'lib, joriy schyotning kamomadini qoplaydi va to'lov balansi nolga teng bo'ladi (BP egri chizig'idagi S nuqtada) [8].

Aynan tashqi muvozanatni ta'minlash uchun G va R o'zgarishlarining kombinatsiyasi BP egri chizig'ining to'g'ri bog'liqlikka ega bo'lishini aks ettiradi. BP egri chizig'idan pastda va o'ng tomonda joylashgan nuqtalar to'lov balansi defitsitini ko'rsatadi ( $BP < 0$ ). BP egri chizig'idan chapdagi va yuqoridagi har qanday nuqta to'lovning ijobiy balansini, qat'iy moliyaviy va pul bilan ta'minlangan balans siyosatini tavsiflaydi ( $BP > 0$ ).



**7-rasm. To'liq ish bilan bandlik, potentsial ishlab chiqarish hajmi va inflyatsiyaning yo'qligi jarayonlari bilan tavsiflangan ichki muvozanat**

E nuqtada ham ichki, ham tashqi muvozanat ta'minlangan deylik. Agar davlat xarajatlari G oshsa, u holda daromad multiplikator effekti bilan ko'payadi. Bu o'sish E nuqtadan A nuqtagacha bo'lgan harakat bilan tasvirlangan, ya'ni muvozanat nuqtadan ortiqcha talab holatiga harakati daromad o'sganda inflyatsion bosimni keltirib chiqaradi. Ichki muvozanatni tiklash uchun talabni kamaytirish maqsadida R foiz stavkasini oshirish orqali pul massasi hajmini kamaytirish talab qilinadi. 7-rasmda daromadga to'g'ri keladigan resurslarning to'liq bandligi va ichki muvozanatning tiklanishi A nuqtadan D nuqtagacha harakat bilan tasvirlangan. Binobarin, ichki muvozanat holatini ta'minlovchi G va R kombinatsiyalar to'plami to'g'ri bog'liqlikka ega bo'lgan YY egri chizig'ini beradi. YY egri chizig'idan o'ngda va pastda joylashgan nuqtalar ortiqcha talabni tasvirlaydi. YY egri chizig'idan chapda va yuqorida joylashgan barcha nuqtalar ortiqcha taklifni aks ettiradi, chunki talab kamayadi va foiz stavkasi ko'tariladi.

7-rasmda ko'rinib turibdiki, BP egri chizig'ining qiymali YY egri chizig'iga nisbatan tekisroq. BP tikligi kapital harakatchanligi o'lchovi bilan belgilanadi. O'zaromonosabatlar quyidagicha: harakatchan kapital qancha ko'p bo'lsa, R foiz stavkasi shunchalik kam oshadi, bu esa joriy hisobot taqchilligini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan kapital oqimini rag'batlantiradi. Bunday holda, BP egri chizig'i yanada tekisroq ko'rinishga ega bo'ladi. Kam kapital harakatchanligi bilan BP egri chizig'i yanada tik bo'ladi. Biroq kapitalning nisbatan past harakatchanligi bilan ham, BP egri chizig'i YY ga qaraganda balandroq bo'lolmaydi. BP egri chizig'ining tikligi YY egri chizig'ining tikligi bilan faqat kapitalning nol harakatchanligi bilan bir xil bo'lishi mumkin, chunki pul-kredit va soliq-budjet siyosati mustaqil vosita sifatida ishlamaydi. Boshqa barcha holatlarda YY egri chizig'i BP egri chizig'iga qaraganda ancha yuqori.

IS-LM-BP modeli: Mundell-Fleming modeli uchta tenglamani o'z ichiga oladi:

$$Y + C(Y - T) + I(r) + G + Xn(e), IS;$$

$$M/P = L(r, Y), LM;$$

$$r = r^*.$$


Birinchi tenglama tovar bozorini, ikkinchisi - pul bozorini, uchinchisi, ichki foiz stavkasi (r) jahon foiz stavkasi ( $r^*$ ) darajasi bilan belgilanadi.

Model uchta endogen o'zgaruvchini o'z ichiga oladi: Y, r va e .. Ikkita grafik tuzish taklif qilingan. Har bir grafikada o'zgaruvchilardan bittasi doimiy

sifatida qabul qilinadi va tahlil ikkita o'zgaruvchining o'zaro bog'liqligida amalga oshiriladi.

8-rasmda IS egri chizig'i pastga, LM yuqoriga yo'naltirilganligi ko'rsatilgan. Gorizontaal chiziq jahon foiz stavkasini aks ettiradi. Grafik ikkita xususiyatga ega.

1. IS egri chizig'i holati valyuta kursi darajasi bilan belgilanadi. Valyuta kursining ko'tarilishi egri chiziqni chapga siljitadi.




**8-rasm. Mundell-Fleming Y - r modeli**

2. Uchala egri chiziq ham bir nuqtada kesishadi.

Ammo bu uchta egri chiziq bir nuqtada kesishmaydi deb taxmin qilishimiz mumkin (9-rasm). Bunday holatda ikkita variant mavjud:


Ayirboshlash kursi juda past bo'lganligi sababli IS va LM egri chiziqlari jahon foiz stavkasi darajasidan kesib o'tadi (9-rasm, a). Ushbu holat xorijiy investorlarni ma'lum bir mamlakat iqtisodiyotiga kapital qo'yishni rag'batlantiradi, bu uning valyutasi kursining o'sishiga va IS egri chizig'ining pastga siljishiga olib keladi.

IS va LM egri chiziqlari ichki foiz stavkasi dunyo darajasidan past bo'lgan nuqtada kesishadi (9-rasm, b). Bunda ma'lum bir mamlakatda sarmoyadorlar o'z kapitallarini eksport qilishga qiziqishadi, natijada uning valyuta kursi pasayadi va IS egri chizig'i yuqoriga harakat qiladi. Shunday qilib, muvozanat LM egri chizig'ining gorizontaal chiziq bilan dunyo foiz stavkasi darajasi kesishmasida o'rnatiladi.



**9-rasm. IS va LM egri chiziqlari, jahon foiz stavkasi**


10-rasmda vertikal o'qda valyuta kursining qiymatlari, gorizontaal o'qda daromad qiymatlari ko'rsatilgan. Foiz stavkasi doimiy va dunyo darajasiga teng deb taxmin qilinadi. Bu holatda grafik ikkita tenglamani ko'rsatadi:



**10-rasm. Mundell-Fleming Y-e modeli**


Iqtisodiy muvozanat IS va LM egri chiziqlarining kesishish nuqtasida ta'minlanadi. Ushbu kesishish nuqtasi valyuta kurs va daromad darajasini aks ettiradi.

Grafikda tovar bozori (IS\*) va pul bozori (LM\*) muvozanati ko'rsatilgan. Jahon foiz stavkasi o'rnatilganda, LM\* tenglamasi valyuta kursi darajasidan qat'i nazar, umumiy daromadni aniqlaydi.



**11-rasm. Mundell-Fleming Y-e modeli**

11-rasm gorizontaal chiziq bilan ko'rsatilgan dunyo foiz stavkasi  $r^*$  bo'yicha LM daromad egri chizig'ini ko'rsatadi. Ushbu egri chiziq birgalikda valyuta kursidan qat'i nazar, daromad darajasini belgilaydi.



**12-rasm. LM\* egri chizig'ining vertikal chiziq shaklini olgan ko'rinishi**

Y – e diagrammasi valyuta kursi darajasi iqtisodiy siyosatdagi o'zgarishlarga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Xulosa. Ushbu maqola orqali biz mamlakat makroiqtisodiy barqarorligini fiskal hamda monetar siyosat, uning Mundell-Fleming modeliga bog'liqligi orqali ta'minlashni ko'rib chiqdik. Mamlakat budjetining to'liqligi va ishonchliligi davlat budjetining strategik yo'naltirilganligini amalga oshirish, pul-kredit siyosatini to'g'ri yo'lga qo'yishga bog'liq. Respublikada makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, valyuta bozorini erkinlashtirish, yuqori likvidli tovarlarni sotishning bozor usullarini joriy etish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar aholining keng qatlamlarini tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar hamda iqtisodiy islohotlarni izchil davom ettirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Mundell-Fleming modeli – bu iqtisodiy siyosatning har xil turlarini qat'iy va o'zgaruvchan valyuta kurslarida baholash uchun ishlatiladigan kichik ochiq iqtisodiyot modeli. Mundell-Fleming modeli milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga qo'shgan hissasi kichik deb hisoblaydi, shu munosabat bilan uning rivojlanishining asosiy parametrlarini jahon bozori, ya'ni tashqi tomondan belgilaydi. Ochiq iqtisodiyotni tahlil qilishda Mundell-Fleming modeli juda foydali vosita hisoblanadi. Ko'plab darsliklar va maqolalar ushbu modellarning har birini yoqlaydi yoki ularga qarshi chiqadi. Biroq dunyo xalqaro savdo va kapital oqimlarini liberallashtirishga intilayotganini inkor etib bo'lmaydi (asosan JST shartnomalari orqali). Xulosa qilib aytganda, kapitalning mukammal harakatchanligi bilan pul-kredit siyosati faqat egiluvchan valyuta kurslari bilan ishlaydi va fiskal siyosat faqat belgilangan valyuta kurslari bilan ishlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://lex.uz/docs/-4147294>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.11.2019 dagi "Inflatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5877 farmoni.
3. Mundell, Robert A. (1963). "Capital mobility and stabilization policy under fixed and flexible exchange rates". *Canadian Journal of Economics and Political Science*. **29**(4): 475–485. doi:10.2307/139336. Reprinted in Mundell, Robert A. (1968). *International Economics*. New York: Macmillan
4. Fleming, J. Marcus (1962). "Domestic financial policies under fixed and floating exchange rates". *IMF Staff Papers*. **9**: 369–379. doi:10.2307/3866091. Reprinted in Cooper, Richard N., ed. (1969). *International Finance*. New York: Penguin Books
5. N. Gregory Mankiw. *Macroeconomics*. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 321.
6. Zaxidov G'E., Asqarova M.T., Djumayev Z.A., Amirov L.F., Hakimov H.A. *Makroiqtisodiyot*. Darslik. – T.: 2019. – 290 b.
7. Вечканов Г. С., Вечканова Г. Р. В40 Макроэкономика. 2-е изд. — СПб.: Питер, 2006. — 544 с.: ил. — (Серия «Учебник для вузов»).
8. Salimov B.T., Asqarova M.T., Yakubov I.A., Yusupov M.S., Yuldashev G'T., Hakimov H.A. *Mikroiqtisodiyot*. Darslik. – T.: "Iqtisodiyot", 2019. – 446 b.





**РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ**  
**DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION TECHNOLOGY**  
Илмий электрон журнал | Scientific electronic journal


Мuharrir:  
Yaxshiyev H.T.  
Musahhah:  
Matxo'jayev A.O.  
Tehnik muharrir:  
Kamilova D.D.

Litsenziya AI: № 2537 08.02.2022 y. Bosishga ruxsat etildi: 18.10.2022.  
Qog'oz bichimi: 60x84 1/8. Shartli bosma tabog'i: 12,75.  
Adadi: 50 nusxa. № 19/10-2022-sonli buyurtma.


“IMZO PRINT MEDIA GROUP” XK matbaa bo'limida chop etildi.  
100050, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Mirxosilboy ko'chasi, 55-uy.




# TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS



+998 71 239-28-94  <http://dgeconomy.tsue.uz/>

 [dgeconomy\\_tdiu@mail.ru](mailto:dgeconomy_tdiu@mail.ru), [dgeconomy@tsue.uz](mailto:dgeconomy@tsue.uz)

 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.